

О'QUVCHILARNI TADBIRKORLIK KOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH VA SALOHIYATINI BAHOLASH.

Atajonova Dilduzaxon

Maxkamovna

Farg'ona shaxar Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi Bizness asoslari fani
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga tadbirkorlik haqida ma'lumot berish, tadbirkorlikning mamlakatimizda rivojlanishi ko'nikmalarini shakillantirish. G'oya va imkoniyatlarning farqi, iqtisodiyotni rivojlantirish, kichik biznes va o'quvchilarni biznes rejalarida nimalarga e'tibor berish bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyotni boshqarish, ishlab chiqarish, bozor iqtisodiyoti, tadbirkor, g'oya, xususiy tadbirkorlik, daromad, xarajat, foyda, kichik biznes, rakobat muhiti, sarmoya, texnologiyalar, resurs, ehtiyoj.

Ma'lumki, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik va rejalashtirishga asoslangan tizimi hukmronlik qilgan davrida tadbirkorlikning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishda hamda iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati inkor etib kelindi. O'tgan sobiq Sho'ro davrida kishilar ongiga kichik ishlab chiqarish, xususiy tadbirkorlik kapitalizm illati deb singdirildi. Natijada tadbirkorlik turli ma'muriy yo'llar bilan cheklandi. Xususiy ishlab chiqarish bilan shug'ullanish faoliyati qonun orqali ta'qiqlandi. Ishlab chiqarishda kichik korxonalar faoliyati va afzalliklari inkor etilib, korxonalarni yiriklashtirish siyosati olib borilishi natijasida yagona davlat monopoliyalari vujudga keldi.

Jahon va O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida beznesni rivojlantirmay turib, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy muammolarni, ayniqsa

ishsizlikning oldini olish, aholi daromadlarining oshishi, iste'mol bozorini mahsulotlar bilan to'ldirish va ko'paytirish mushkul. Buning tasdig'i sifatida Yevropa Ittifoqi Hamjamiyati mamlakatlarini olib ko'rish mumkin. Ularda ishlab chiqariladigan jamiyalpi ichki mahsulotlarning 67%idan ko'prog'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog'ining salmog'iga to'g'ri keladi.

Dastlab respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishga e'tibor berilib, 1991 yil 16 fevralda qabul qilingan «Tadbirkorlik to'g'risida»gi onunga 1993 yil 2 iyulda ayrim o'zgartirishlar kiritilib, uning huquqiy asosi yaratildi. 1995 yil 21 dekabrda esa «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida», 1999 yil 14 aprelda «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Konunlar, bir kator Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan ijobiy rivojlantirildi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish hamda aholini ish bilan ta'minlash, halq farovonligini oshirish maksadida quyidagilarga e'tiborni kuchaytirish lozim:

- jamiyatimizda tadbirkorlik va ishbilarmonlikka bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish;
- tadbirkorlikni rivojlantirishga g'ov bo'lgan sun'iy to'siqlarni bartaraf etish;
- tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun ajratilgan xorij sarmoyasidan to'liq foydalanishni oqilona yo'lga qo'yish va lizingni yanada jalb qiluvchi mexanizmni joriy etish;
- tadbirkorlik va ishbilarmonlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat hamda mahalliy mablag'lardan samarali foydalanish;
- tadbirkorlar bilan yirik korxonalar hamkorligi va faoliyatini kengaytirib borish;
- mamlakat iste'mol bozorini to'ldirish maqsadida import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish hamda eksportga mo'ljallangan raqobatbardosh mahsulotlarni ko'paytira borish;

· tadbirkor va ishbilarmonlar o'z sohalarini yukori darajada egallashlari uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi tarmoqlarini son va sifat jihatidan oshirish;

· tadbirkorlik va ishbilarmonlik sohasidagi ilg'or tajribalarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish va ulardan unumli foydalanish zarur.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali nafakat ularning jamiyat uchun yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda xal kiluvchi mavqe va rolini egallashi, balki shu bilan birga mamlakat aholisi farovonligini oshirish, daromadlarini ko'paytirish, ishsizlikni bartaraf etish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ijobiy ahamiyatga ega. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yoshligidanoq tadbirkorlik saloxiyatlarini baxolash va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida axamiyat berilmoqda.

O'quvchilarga tadbirkorlarga respublikamizda shunchalik ko'p imkoniyatlar yaratilgani haqida tushuncha berish. Tadbirkor avvavlo o'zi yaratilgan imkoniyat, imkoniyatning o'zi nima va undan qanday foydalansa bo'ldai degan savollarga javob topishi lozim.

Tadbirkorlik imkoniyati shunchaki, g'oya yoki taklifni amalga oshirish tavakkalini o'z zimmasiga olgan shaxsga foyda olish imkonini beradigan, diqqatni jalb etadigan investitsion g'oya yoki taklif sifatida talkin kilinishi mumkin. Bunday imkoniyatlar iste'molchilik xohishlarida o'zgarishlar yuz bergani tufayli ochilib, bozorda uning xaridori yoki yakuniy foydalanuvchisi uchun iste'mol qiymatini tashkil etadigan (yoki ko'shadigan) tovar yoki xizmat paydo bo'lishiga olib keladi. Buning uchuye avvala g'oyalarni imkoniyatlardan farkini bilib olish maksadga muvofikdir.

O'quvchilarga g'oyalarning imkoniyatlardan farqini tushuntirish lozim. G'oyaning imkoniyatdan farqi:

■ Yaxshi g'oya borligi hali umuman yaxshi tadbirkorlik imkoniyati borligini bildirmaydi. Misol uchun, 80% dan ortiq yangi mahsulot bozorda omadsizlikka uchrashini e'tiborga olish lozimdir.

■ Shunday qilib, nima - g'oyani tadbirkorlik imkoniyatiga aylantiradi?

- Sodda kilib aytganda, Daromadning Xarajatlardan ortib qolgani = Foyda.

- Yaxshi tadbirkorlik imkoniyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.

Yaxshi tadbirkorlik imkoniyatining o'ziga xos xususiyatlari

Yaxshi hisoblanish uchun tadbirkorlik imkoniyati quyidagi bir qator mezonlarni qoniqtirishi (yoki qoniqtirishga kadir bo'lishi) kerak:

- Amaldagi talabga mos bo'lishi.

- Investitsiya qilingan sarmoyaga foydani ta'minlashi.

- Raqobatbardosh bo'lishi.

- Qo'yilgan maqsadlarga muvofiq bo'lishi.

- Loyiq resurslar va qobiliyatlar bilan ta'minlangan bo'lishi.

Yaxshi hisoblanish uchun tadbirkorlik imkoniyati quyidagi mezonlarni qoniqtirishi (yoki qoniqtirishga qodir bo'lishi) kerak:

- Amaldagi talabga mos bo'lishi, ya'ni sizni tovaringizni sotib olish imkoni bor va o'zining tanlash huquqini amalga oshirishni istaydigan xaridorlarning qoniqtirilmagan talablari yoki ehtiyojlariga javob berishi.

- Investitsiya qilingan sarmoyaga foydani ta'minlashi, ya'ni sarflangan harakatlar va qilingan tavakkalni munosib, o'z vaktida, uzok muddat davomida qoplaydigan daromad yoki taqdirlash bilan ta'minlashi.

- Raqobatbardosh bo'lishi, ya'ni iste'molchi nuqtai nazaridan, tovar yoki xizmat bozorda mavjud bo'lgan boshqa tovarlar yoki xizmatlarga nisbatan teng yoki ulardan yaxshirok bo'lishi.

- Qo'yilgan maqsadlarga muvofiq bo'lishi, ya'ni tavakkalni o'z zimmasiga oladigan shaxs yoki tashkilotning maqsadlariga muvofiq va istaklarini qondiradigan bo'lishi.

- Loyiq resurslar va qobiliyatlar bilan ta'minlangan bo'lishi, ya'ni resurslar bilan, imkoniyatni amalga oshirish qobiliyati bilan ta'minlangan bo'lish, huquqiy talablarga mos kelish va h.k. nuqtai nazaridan, mazkur tadbirkor tomonidan bajariladigan bo'lishi lozim.

- “Imkoniyatni amalga oshirish oraliq’i”ning davomiyligi. Siz qulay imkoniyatni yarata olasizmi, yoki yangi ochilgan imkoniyatni u bor bo’lgan davrda amalga oshirishga ulgurasizmi?

- Tadbirkorning shaxsiy maqsadlari va qobiliyatlari. Siz haqiqatdan ham tadbirkorlikka kirishmokchimisiz? Sizdan bu uchun talab etilayotgan narsalarga egamisiz? Bu uchun manfaatdorligingiz yetarli mi?

- Menejerlar komandasining sifati. Siz bilan birga yana kimlar tadbirkorlik bilan shug’ullanadi? Ular tajriba, bilim, aloqalar yoki boshqa istalgan va zarur atributlarga egami?

- Raqobat muhiti. Sizning raqobatchilaringiz kimlar? Sizda xaridorlar xohlaydigan va raqobatchilaringizda bo’lmagan biror narsa bormi? Misol uchun, siz kamroq xarajat bilan tovarni ishlab chiqarish va sotishni uddalaysizmi?

- Sarmoya, texnologiyalar va boshqa resurslarga bo’lgan ehtiyoj. qancha sarmoya, qanday muhim texnologiyalar yoki boshqa resurslar zarur? Ular sizda bormi, siz ularni olib bilasizmi?

- Atrof muhitning holati. Siyosiy, iqtisodiy, geografik, huquqiy, me’yoriy ijodkorlik vaziyatlari sizning maqsadlaringizga erishishga ko’maklashadimi? Sizning korxonangiz atrof muhitiga zarar yetkazmaydimi?

Ushbu keltirilgan masalalar tadbirkor odatda duch keladigan muammolarni aks ettiradi. Ularga beriladigan javoblar har qanday tadbirkorlik imkoniyatini o’ziga jalb qilish darajasini belgilaydi.

O’quvchidagi tomonidan taklif etilgan g’oyalar va imkoniyatlar, aniqlangan yoki taklif etilgan paytdan boshlab, ular hayotga qodirligi tomonidan tanlanishi va baholanishi lozim. Bu – oson masala emas, lekin, ayni vaqtda, juda muhim. Aynan bu masalaning yechilishi (yoki yechilmasligi), muvaffaqiyat va omadsizlik, boyish va siz ega bo’lgan barcha narsani yo’qotish orasidagi farqning sababi bo’lishi mumkin. Uning yechilishini o’zi, hali umuman muvaffaqiyatga erishishga kafolat bermasa ham, - ilohiy kuchlar aralashuvini hisobga olmasak, bu dunyoda kim ham muvaffaqiyatga kafolat

bera olar edi, - har qalay bu - xavfni va, binobarin, omadsizlikka uchrash imkonini kamaytirishga yordam beradi.

O'z tadbirkorlik faoliyatini endi boshlamoqchi bo'lgan o'quvchiga bir necha maslaxatlar:

- Siz shug'ullanmoqchi bo'lgan ish sizga tanish bulishi kerak;
- Bir kishiga muvaffaqiyat keltirgan biznes boshqa bir kishiga muvaffaqiyat keltirmasligi mumkin;
- Mahalliy xom ashyo, resurs va materiallarga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga quygan odamning muvaffaqiyat qozonishga imkoniyati ko'proq;
- Qonun bilan taqiqlanmagan narsaning barchasini qilish mumkin;
- Xatolardan urganishadi, biroq yaxshisi boshqalarning xatolaridan saboq olgan ma'qul;
- Boshlayotgan ishingiz sizning qiziqishlaringizga bog'liq bo'lgani yoki ularning davomchisi bo'lgan bilimlaringiz saviyasiga mos kelgani yaxshi.

Biznesingiz uchun sinchkovlik va xafsala bilan g'oya tanlangach, biznes konsepsiyasi-asosiy holatlarning qisqa va juda aniq tushunchasini aniqlash kerak.

Adabiyotlar

1. «Tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonun
2. «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi qonun 1995 yil 21 dekabr
3. «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonun 1999 yil 14 aprel
4. Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari
5. S.Salayev, M.Gulmanov, D.Saidov, "Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asoslari", Toshkent-2014
6. S.S.G'ulomov, "Tadbirkorlik va kichik biznes", "Sharq", 2002.
7. <http://www.eeep.uz> - "O'zbekistoniqtisodiyoti" tahliliy sharhlar sayti.